

**MO‘JIZAVIY REALIZM AMERIKA MIFLARI TALQINIDA
ЧУДЕСНЫЙ РЕАЛИЗМ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ АМЕРИКАНСКИХ
МИФОВ
MIRACULOUS REALISM IN THE INTERPRETATION OF AMERICAN
MYTHS**

Muhammedova Nilufar Eliboyevna, PhD., falsafa doktori dotsent

O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

nilufarmuxammedova@yahoo.com

Annotatsiya: Maqola mo‘jizaviy realizm miflar talqinida ochib berishga qaratilgan bo‘lib unda nobel mukofoti sohibasi Toni Morrison asarlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: mo‘jizaviy, realizm, folklor, element, talqin, Amerika.

Аннотация: Целью статьи является раскрытие чудесного реализма в интерпретации мифов, в которой анализируются произведения лауреата Нобелевской премии Тони Моррисон.

Ключевые слова: чудесный, реализм, фольклор, стихия, интерпретация, Америка.

Abstract: The article aims to reveal the miraculous realism in the interpretation of myths, in which the works of the winner of the Nobel Prize, Tony Morrison, are analyzed.

Key words: miraculous, realism, folklore, element, interpretation, America.

Ushbu yangi yo‘nalish o‘ziga xos atama bilan ataldi. Mo‘jizaviy realizm atamasi shu kunga qadar o‘ziga xos uch bosqichli tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlab 1920 yil Germaniyada mazkur atama san’atga kirib keldi. 1940 yilga kelib Amerikada va 1955 yillarda esa Lotin amerikada keng tarqaldi. Mistik realizmning Yevropadan amerikaga kirib kelishi va lotin amerikada qo‘llanilishida turfa xilliklar uchraydi. Mo‘jizaviy realizm atamasi 1920 yilda nemis san’atshunosi va tanqidchi Frans Ro tomonidan qo‘llanildi. Yigirmanchi asrning o‘rtalarida esa kubalik yozuvchi Alejo Karpenter va italiyalik yozuvchi Massimo Bontepelli, lotin

amerikalik tanqidchi Angel Flores tomonidan talqin qilina boshladi. Yigirmanchi asrning oxirlarida lotin amerikalik yozuvchi Gabriel Garsia Marques ijod qilgan bo‘lsa, nobel mukofoti sohibasi Toni Morrison ham mazkur yo‘nalishda ijod qildi.

XX asr Amerika adabiyotining taniqli adibasi, 1993 yil Nobel mukofoti sohibasi Toni Morrison (1913-2019) ijodida etnik o‘zlikni anglash g‘oyasi keng talqin qilinadi. Yozuvchi mazkur mavzuga xalqiga o‘zligini tushunish va saqlash uchun yordam berish istagida murojaat qiladi. Toni Morrison yaratgan qahramonlar qulliq haqidagi xotiralarni unutib, yangi madaniy jamiyatga kirishni ho‘xlaydilar. Adibaning badiiy makonini mifologik motivlar va mifologik obrazlar sifatida ramz, arxetip va marosimlarni o‘z ichiga olgan mifologik kompleks tashkil etadi. Adabiyotshunos A.F.Kofmanning fikricha mo‘jizaviy realizmda mifologik obrazlar va mifologik motivlar badiiy matnning mifologik infratuzilmasini tashkil etadi. Ularning ramziy ma‘nolari esa muallifning ijtimoiy madaniy muhitga asoslangan olam obrazini namoyish etadi. Mifologik motivlar va mifologik obrazlar Toni Morrison romanlarining semiotik infratuzilmasining asosi hisoblanadi va yozuvchi tafakkurining o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Muallifning dunyoqarashi, falsafiy, estetik, axloqiy olami bir birini to‘ldirgan obraz va motivlarning ramziy ma‘nosi orqali ifodalanadi. Adiba poetikasida ramzlar va arxetiplar nafaqat kodlangan ma‘noni anglatishda, balki roman syujetlariga asos bo‘lgan g‘oyalarda ham aks ettiriladi. Shu tariqa asarlarda olamni yaratadigan obrazlar tug‘ilmaydi, balki, olam obrazlarda yaratiladi. Toni Morrison poetikasida arxetip mifning asosini, marosim esa uni amalga oshirish uslubi hisoblanadi. Marosim mifologik motivlarga asoslanadi, arxetip va ramz – mifologik obrazdir. Mifning marosim orqali amalga oshishi yozuvchi uchun muhim sanaladi, chunki marosim mifning sahnadagi timsolidir.

1977 yil Toni Morrison “Sulaymon qo‘shig‘i” (Song of Solomon) romanini kitobxonlarga taqdim etdi. Mazkur romanda adiba hikoya qilishning epik uslubini, personajlarning ko‘p qirraligini va ijtimoiy muammoning muhimligini uyg‘unlashtira oldi. Asosiy voqealar 1963 yil, amerika jamiyatida fuqarolar huquqlari uchun harakat va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida

afroamerikaliklarning o‘rnini tubdan qayta ko‘rib chiqish masalasi avjga chiqqan davrda sodir bo‘ladi. Mana shu voqealarga e‘tibor qaratgan yozuvchi qora tanlilar holatini o‘zgartirgan quldorlik bekor qilingan davrdan boshlab fuqarolar huquqlari uchun olib borilgan voqealar fonida Meykon O‘lgan III (Macon Dead III) lar oilasining tarixini tasvirlaydi. Asar Amerika qora tanli aholisining milliy o‘zligi anglash inqirozini bartaraf etish istagini ifodaladi. Shuni ta’kidlash lozimki, yozuvchi uchun zamonaviylik muammosi Amerikaning folklori, afroamerikaliklarning taqdiri va tarixi bilan uzviy bog‘liq.

Yozuvchi mazkur romanini bejizga mifologik tarzda boshlamaydi. Adibaning bunday yondashuvi o‘z xalqining etnik ongini qayta tiklashga bo‘lgan qiziqishini ifodalaydi. Asarning uslubi qora tanlilar musiqasining mo‘jizaviy ohangiga asoslangan. Unda folklor, millatning eski e‘tiqodlari va afsonalari bilan uyg‘unlik seziladi. Toni Morrison “Sulaymon qo‘shig‘i” romanidagi g‘aroyibot ko‘pligini quyidagicha izohlaydi: “Men uchun qora tanlilar folklori, ularning sehr-joduga ishonishi boy manba edi. Ular sehr-joduga judayam ishonishadi. Bir kuni mendan so‘rashdi: “Siz ruhlarga ishonasizmi?” Men javob berdim: “Albatta. Siz mikroblarning borligiga ishonasizmi?” Bu merosimizning bir bo‘lagi”(Davis 1998). Asardagi epizodlarning ko‘pchiligini ruhlarga, kohinlarga ishonish, tabiatning sehrli kuchi kabi mifologik hikoyalar tashkil etadi. Shu bilan birga yozuvchi afrika miqlaridan tashqari roman badiiyligiga xristian va grek miqlarini ham qo‘shadi.

Roman markazida – Sutchi (Milkman) laqabini olgan asosiy qahramon Meykon O‘lgan III ning taqdiri, uning ajdodlari vataniga sayohat vaqtida ma’naviy tiklanishi tarixi, o‘z “men”ini topish jarayoni turadi. Hatto asar boshida keltirilgan epigrafda ham bosh g‘oya ifodalangan: “Otalarga uchish xos. Farzandlarga esa ularni bilish xos”(Morrison 1982). Mazkur epigraf qora tanlilar mifologiyasida keng tarqalgan uchish motiviga va romanning bosh g‘oyasiga ishora qiladi. Asar o‘z qanotlarida “Mehribonlik uyi”dan uchib ketishni va’da qilgan sug‘urta agenti Robert Smitning o‘limi oldidan qoldirgan maktubi bilan boshlanadi. Romandagi voqealar ma’lum bir aniq vaqtda sodir bo‘ladi: “18 fevral, 1931 yil, chorshanba, kunduzgi soat

3” – ya’ni yozuvchining tug‘ilgan kuni. Ko‘rinib turibdiki, Toni Morrison asariga avtobiografik element kiritadi. Ertasiga shaharda g‘aroyib hodisa sodir bo‘ladi: birinchi marta kasalxonada qora tanli go‘dak, Meykon O‘lgan III, uzoq vaqt onasini emganligi uchun Sutchi laqabini olgan, asar qahramoni tug‘iladi. Bir vaqtlar shu kasalxona tomidan Smit parvoz qilgan edi. “Mister Smitning moviy ipak qanotlari go‘dakning hayotida balki iz qoldirgandir”, - yozadi adiba. Voyaga yetgach ham u “har safar uchayotgan narsani ko‘rsa, ajoyib zavqni tuyardi”(Watkins 1994). Romanni o‘qigan sari asar qahramonidagi parvoz qilish istagi unga o‘tmishda yigirma bitta go‘dakni xotini Rina bilan yerda tashlab, paxta dalalaridan vatani Afrikaga uchib ketgan bobosi Sulaymondan o‘tganligi ma’lum bo‘ladi. Taxmin qilish mumkinki, mazkur motivning qo‘shimcha ma’nosi bor, ya’ni, bu motiv nafaqat afrika, balki antik mifologiyasida ham uchraydi. Adabiyotshunos S.Devis roman syujetini Dedal va Ikar haqidagi yunon afsonasi kontekstida ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi(Davis 1998). Biroq, yozuvchining o‘zi esa, ijodidagi asosiy miflar manbasini afrika yoki afroamerika an’analari tashkil etishini aytadi. Fikrimizcha, romanda parvoz motivi afroamerikaliklarning erkga va millat tarixidagi salbiy hodisalarni bartaraf etishga bo‘lgan ko‘p asrlik intilishini aks ettiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdumalik o‘g‘li, O. R. (2023). Theoretical Aspect of “Synecdoche “As a Stylistic Figure. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(4), 249-254.
2. Davis, C Y. *Self, Society and Myth in Toni Morrison's Fiction* / C. Y. Davis // Toni Morrison. - N.Y.: Palgrave Macmillan, 1998. - P. 27-42.
3. Nematovna, F. S. (2021). Using the simile in the classical literatures and the problems of translating them from uzbek into English on the base of “Alexander's wall” by alisher navoi.
4. To‘Lanboyeva, G., & Yusupova, S. (2023). LINGVOKULTUROLOGIYADA “STEREOTIP” TUSHUNCHASI. *Scientific progress*, 4(2), 328-332.

5. Watkins, M. Talk with Toni Morrison / M. Watkins // Conversations with Toni Morrison. - Jackson: Univ. Press of Mississippi, 1994. - P. 43-47.
6. Моррисон, Т. Песнь Соломона / Т. Моррисон. - М.: Прогресс, 1982. - 384 с.
7. қизи Ахмаджонова, Ш. Т. (2023). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗЛАШУВ УСЛУБИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ. *ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI*, 3(6), 66-70.
8. Кузиев, С. И. (2020). Общение между врачами и медицинскими работниками: роль и ранг медицинской терминологии в хирургии, здравоохранении и истории медицины. *Вестник науки и образования*, (13-3 (91)), 29-31.